

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI
“SHARQ MUSIQASI” FAKULTETI
“XALQ CHOLG'ULARIDA IJROCHILIK” KAFEDRASI

Badalova Dilnoza Mirpo'lat qizi

**“So'g'diyona o'zbek xalq cholg'ulari kamer orkestri
faoliyati va ijro repertuariga bir nazar”**

“5150700-Cholg'u ijrochiligi (xalq cholg'ulari)” ta'lim yo'nalishi

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar:
professor, F.Abdurahimova

Toshkent-2017

MUNDARIJA

	Kirish	3
I BOB	F.Abdurahimovanning hayoti va ijodi	7
1.1	“So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer orkestrining tashkil qilinishi va faoliyati	12
1.2	“So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer orkestrining sozandalari haqida	20
1.3	“So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer orkestrining faoliyatida o’zbek kompozitorlarining ijodiy hamkorligi	30
II BOB	“So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer orkestri ijro repertuariga bir nazar Avaz Mansurovning “Moziydan sado” (konsert-poema) asaining tahlili	37
2.1	“So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer orkestrining mamlakatimiz va xalqaro miqyosda qo’lga kiritgan diplom va sertifikatlari	62
2.2	“So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer orkestrining hayotidan foto lavhalar	69
2.3	Ilovalar	72
	Xulosa	79
	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	80

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin musiqa va san'at, xususan bu sohalarning ta'lim tizimini isloh qilish, uning mazmun – mohiyatini tubdan yangilash, zamonaviy texnologiyalar, vositalar bilan ta'minlash davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarildi. Jumladan milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, huquqiy jamiyatni barpo etish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'quvchilarni milliy qadriyatlar, an'analar va ko'p asrlik musiqiy meros vositasida estetik tarbiyalash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbek milliy san'atini asrab avaylash, uni qadr-qimmatini yuksaklarga ko'tarishga ham alohida urg'u berildi. Bunday buyuk ishlarga o'z hissasini qo'shish uchun F.Abdurahimovada orkestr tuzish niyati tug'ildi.

So'g'diyona jamoasining shakllanishida uning bosh dirijori va badiiy rahbari, O'zbekiston San'at arbobi, professor F.R.Abdurahimovaning sayi harakatlari beqiyosdir. Ta'kidlash joizki, turli yo'nalish va madaniyatlarga xos talaygina xalq cholg'u asboblari orkestrlari faoliyat yuritib kelayotgan davrda, aynan "So'g'diyona"ga murojaat etganimiz bejiz emas. Zero, ushbu jamoa mustaqil O'zbekiston musiqiy madaniyatidagi barcha jarayonlarni aks ettirib, o'tmish va zamon, Sharq va G'arb orasida ko'prik o'rnatishga muvaffaq bo'lgan jamoalardandir.

Har bir tarixiy jarayonning o'ziga xos tomonlarini teran anglagan orkestr sozandalari o'z konsert dasturlarida aynan ushbu qirralarni, hamda o'zbek musiqasi taqdiridagi o'zgarishlarni tinglovchilarga yetkazishga intiladilar. Orkestrning sozandalari xalq cholg'u ijrochiligida shakllangan ko'p asrlik an'analarni saqlagan holda, o'zga millatlar tajribasini, musiqa amaliyotini, klassik musiqani hamda zamonaviy shakl va janrlarni o'zlashtirishga ijobiy yondoshadilar. Natijada, jamoa nafaqat yurtimizda, balki jahon miqyosida ham e'tirofga sazovor bo'lgan.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, shuni qayd etish lozimki, so'g'diyonachilar turli millat an'alarining nozik jihatlarini, o'ziga xos iforini

aniq his qilgan holda, o'zbek milliy xalq cholg'ularini nemis, shotland, fransuz, yapon, koreys yoki xitoy cholg'ulari orasida ularga o'xshashlariga qiyoslab sadolantirishga qodirlar. Bunda jamiyat qiziqishlarini o'zinikidan yuqori qo'yadigan, keng tafakkurli orkestr jonkuyar rahbarining xizmatlari beqiyos.

O'zbek xalq cholg'ularida jamoaviy ijrochilikning turli masalasi murakkab va hamon yechilmagan bo'lib, uni tadbiiq etishga O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, "Milliy cholg'u" eksperimental laboratoriyasi katta ilmiy xodimi A.H.Liviyev jazm qilgan.

Orkestr faoliyatini o'rganish – o'zbek musiqa madaniyatidagi deyarli tadbiiq etilmagan qatlamlardan biri sanaladi. Jamoaning faoliyati, uning repertuar siyosati, ijrochilik uslubi, musiqiy asarlarni ijodiy talqin etish masalasi professional ijodkorlar orasida kuchli baxs va munozaralarga sabab bo'ldi. Bu ham "So'g'diyona" jamoasining o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Mutaxassislar – dirijor, sozanda, musiqashunos va kompozitorlar "So'g'diyona"ning o'ziga xos tomonlari, repertuari, uning shakllanish davrlari, qolaversa, ijodiy intilishlarini o'z maqolalarida yoritishga bel bog'ladilar.

Bularning dalili sifatida quyidagilarni keltirib o'tishni lozim topdik:

Orkestr ijrochisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Odiljon Nazarov jamoa vujudga kelishining ilk davrlaridan boshlab jamoa rahbari bilan yelkama-yelka turib, hamfikrlikda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. U orkestrdagi ijodiy muammolarni, qolaversa, har bir jamoadoshi yutuq va kamchiliklarini ich-ichidan biladi. O.Nazarov o'z maqolasida ushbu masalaga, hamda hamisha dolzarb bo'lgan tinglovchilarning ruhiyati muammosini ochib berishga qaratgan.

San'atshunoslik fanlari nomzodi, "Musiqa tarixi va tanqidi" kafedrasii professori Yu.M.Nosirova, F.Abdurahimovanning ijodiy qiyofasini gavdalandtirar ekan, uning dirijorlik, pedagogik hamda insoniylik qirralarini aks ettirgangan. O'z qahramonini muallif quyidagicha ta'riflagan: "Tashkilotchilik qobiliyati, cheksiz g'ayrat va shijoat bilan uyg'unlashgan bo'lib, mehridaryo yurak va yorqin dirijorlik texnikasi, betakror musiqiy qobiliyat va insoniy sezgiga ko'paytirilgan serqirralik xususiyati kishini hayratga soladi".

G'.SH.Abrarov esa, maqolasida shogird sifatida, o'z ustoziga bo'lgan mehr va sadoqatini aks ettiradi. U F.Abdurahimovani "Ustoz", "Haqiqiy Inson" deya tilga olar ekan, "So'g'diyona" rahbarining pedagogik tamoyillari, uning keng dunyoqarashi haqida so'z yuritadi. Bu borada u quyidagi fikrlarini yozadi: "Firuza Ravshanovna – tarix, adabiyot, falsafa va nafosatga qiziqishimni uyg'otgan".

Ijodiy qiyofalar ko'rgazmasi L.A.Umarova tomonidan izchil davom ettirilib, muallif o'z maqolasini orkestrning "ma'naviy murabbiyi" – O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi A.H.Liviyevga bag'ishlagan. Ijrochi, dirijor, pedagog-uslubiyotchi, tadqiqotchi-publitsist, kompozitor va misiqiy jamoat arbobi A.H.Liviyevga maqola muallifi quyidagicha ta'rif bergan: "yorqin mustaqil tafakkur egasi, faoliyatining har bir sohasida istiqbolli yo'llarni ochishga intiladi". A.H.Liviyevning fikr va mulohazalari avvalo, F.R.Abdurahimovaga qolaversa, jamoaning har bir ijrochisiga qimmatlidir. Shu bois, A.H.Liviyev konsert dasturlarining birinchi tinglovchisi bo'lib, uning mulohazalari jamoa uchun o'ta ahamiyatlidir. Masalan, kompozitor D.Saydaminova bilan hamkorlikda o'tkazilgan "Tush manzaralari" va "Sarob" ijodiy loyihalari A.H.Liviyevning zukko maslahatlari ostida o'tkazilgan.

Zamonaviy kompozitorlik ijodiyotining yorqin vakili D.Saydaminova maqolasi hissiyotga boy bo'lib, ijodkor orkestr jamoasi bilan ijodiy hamkorligi haqida bayon etadi. "Iste'dodli ijodkorlar bilan ishlash – haqiqiy baxt" deb yozadi kompozitor. D.Saydaminovaning jamoa bilan hamkorligidagi ijodiy izlanishlar samarasi bo'lmish I.V.Gyote qalamiga mansub "Mag'rib va Mashriq devoni", Buxorolik shoir Salim Buxoriy tomonidan tarjima qilingani haqida hikoya qiladi.

"Bosh maqsadimiz" – deb yozadi, F.R.Abdurahimova, milliy cholg'ularimiz vositasida insoniyatning ichki kechinmalarini jahon tillarida ifodalashga qodirligini hamda ularning jahon madaniyatining ajralmas qismini tashkil etishini isbotlashdan iborat. Jamoaning turli davr, uslub, milliy maktab kompozitorlarining asarlarini tezkorlik bilan anglab, ijodiy talqin etishi buning yorqin dalilidir. Orkestr repertuarini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning keng ko'lami, hamda o'zbek xalq cholg'ularining cheksiz imkoniyatlari kishini hayratga soladi.

F.R.Abdurahimova “Yurgan – yo’lni yengar” maqoliga amal qilib, o’z tanlagan yo’lida shaxdam odimlab bormoqda. Bu kamtarin, samimiy, kerak vaqtda qat’iy ayol, qariyb yigirma olti yildan buyon Sharq va G’arb madaniyatlarini uyg’unlashtirish yo’lida izlanmoqda. An’anaviy san’at qoniga singgan xalq cholg’ulari orkestri jamoasi tajriba qilishdan qo’rqmay, jahon madaniyati yutuqlarini o’zlashtirib, milliy cholg’ularimiz tarovatini tinglovchilarga taqdim etishdek ezgu ishga ulkan hissa qo’shib kelmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. “So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer orkestrining tarixi va faoliyatini chuqur o’rganib, uni o’zbek musiqa madaniyatiga qo’shgan ulkan hissasini keng yoritish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.“So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer orkestriningshakllanish jarayoni bilan bog’liq tomonlari, ijro uslublarini o’rganish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:

Orkestrning shakllanishida va ijodiy yutuqlarga erishishida kompozitorlar va orkestr sozandalarining ijodiy faoliyati o’rganildi.

Tadqiqot predmeti. “So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer orkestrining ijodiy faoliyati.

Tadqiqot obyekti. “So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer orkestri

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy ahamiyati:

Tadqiqot natijalaridan “So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer orkestrining ijodiy hayoti bo’yicha ta’lim muassasalarida orkestr sinfi uchun namuna sifatida mashg’ulotlarini tashkil qilishda ma’ruzalar matni sifatida, shuningdek, ta’lim muassasalarida ijrochilik bo’yicha o’quv, estetik, axloqiy-ma’naviy tarbiya ishlarini olib boorish jarayonida hamda konsert ijrochiligi ishlarini tashkil qilishda tadqiqot materiallaridan keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ishi 2 bob, 6 qism, kirish, xulosa, ilovalar va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

FIRUZA ABDURAHIMOVANING HAYOTI VA IJODI

60-90-yillarda xalq cholg'ulari ijrochiligida turli tarkibdagi ko'p ovozli ansambl va kamer orkestri jamoalari shakllandi. Shulardan biri 1991 yili Toshkentda iste'dodli yosh sozandalardan tashkil topgan "Sug'diyona" o'zbek xalq cholg'ulari kamer orkestridir. Orkestr A.I.Petrosyansning safdoshi va shogirdi, Toshkent konservatoriyasining professori, iste'dodli dirijor Firuza Abdurahimova tashabbusi bilan tashkil topdi.

Ana shu yillar davomida Firuza Abdurahimova rahbarligidagi orkestr respublikamiz va ko'pgina chet el davlatlarida o'zining konsert dasturlari bilan chiqib, tinglovchilar olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda. Orkestrning ijrochilik mahorati rivojlanishida keying yillarda ayniqsa samarali bo'ldi. Orkestr o'ziga xos ijrochilik uslubini yaratib, Ispaniyada 1996 yili bo'lib o'tgan XXX Xalqaro musiqa festivali sovrindori bo'ldi. Orkestr repertuaridan o'zbek xalq kuylari, qardosh va jahon xalqlari kuylari va qo'shiqlari, O'zbekiston va jahon kompozitorlari asalari o'rin olgan. Orkestrning repertuar tanlashida va uning ijrochilik mahoratining yuksalishida "So'g'diyona" jamoasi rahbari va dirijori Firuza Abdurahimova hamda kompozitor F.Alimovning xizmatlari kattadir.

Firuza Ravshanovna Abdurahimova (Dilmurodova) 1950 yilning 21 avgust kuni Navoiy viloyatining Karmana shahrida tavallud topdi. 1953 yili Firuzaxonlar oilasi Samarqand shahriga ko'chib keladi. 1957 yili Firuza Abdurahimova Samarqanddagi 34-sonli o'rta maktab bilan birgalikda, 1-sonli bolalar musiqa maktabiga rubob-prima sinfi bo'yicha o'qishga kiradi. 1965-1969 yillarda u X.A.Abdurasulov nomidagi Samarqand davlat musiqa bilim yurtida rubob-prima va dirijorlik bo'yicha tehsil ko'radi. Firuza Abdurahimovaning birinchi o'qituvchisi Pavel Nikolayevich Pak bo'lgan, keyinchalik maktabda va bilim yurtida mutaxassislik bo'yicha Pyotr Vasilyevich Andan ta'lim oladi. "Musiqa bilim yurtida dirijorlik fani bo'yicha ta'limni 1-kursdan boshlab Yakob Mixaylovich Bobodo'stovdan oldim, – deb eslaydi F.Abdurahimova. Undan dirijorning turish holatini, qo'l harakatini musiqa harakteriga bo'ysindirishni

o'rgandim. Keyinchalik dirijorlikdan Olimboy Rahmonovich Rahmonovdan va 4-kursda esa rubob-prima cholg'usi bo'yicha va dirijorlikni o'sha yillari bilim yurti direktori va ajoyib murabbiy Umar Salohiddinovich Xursandov sinfida davom ettirdim. Ular juda talabchan va o'ta bilimdon mutaxassis edilar. Darvoqe, musiqa bilim yurtida o'qigan yillarim dirijorlik san'atiga qiziqish boshlangan desam mubolag'a bo'lmaydi". O'qishni imyiyozli diplom bilan tugatib, 1969 yili Firuza Abdurahimova Toshkent davlat konservatoriyasining xalq cholg'ulari fakultetiga o'qishga qabul qilinadi. Konservatoriyada rubob-prima mutaxassisligi bo'yicha dotsent Valentina Yakovlevna Borisenko sinfida; dirijorlikdan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor Ashot Ivanovich Petrosyans sinfida saboq oladi. "Konservatoriyaning II kurs tolibasi bo'lganimda menga opera-simfonik dirijorligi bo'limida professor Muxtor Ashrafiy sinfida o'qishni tavsiya etishdi, - deb so'zlaydi F.Abdurahimova, - Muxtor Ashrafovich juda dono inson edilar, meni eshitib va ko'zdan kechirib, menga uning sinfida ikki oy ichida dars olib va keyin imtihon topshirib, ushbu bo'limda o'qishni davom ettirishni men o'zim hal etishim kerakligini uqtirdi. Men ikki oy M.Ashrafiy va S.(Q.) Usmonovlar darslariga kirib dirijorlik san'ati bo'yicha saboq oldim. Ammo, o'qishni xalq cholg'ulari fakultetida davom ettirishga ahd qildim. Keyinchalik shu yo'lni tanlaganim uchun hech afsuslanmadim. Chunki A.I.Petrosyans sinfida ham xalq cholg'ulari orkestri dirijorligidan ta'lim olar ekanman, kelgusida ushbu soha bo'yicha o'zimning yo'limni topishim aniqligini o'shanda payqagan bo'lsam keark. Ashot Ivanovich yuqori malakali dirijor va murabbiy edi, talabalar bilan dars o'tganda partitura yoki klavir bilan manual texnikaning nozik vositalarigacha ahamiyat berar edi. O'qitish uslublari har tomonlama dirijorlik texnikasini shakllanishiga asoslangan edi. Asosiy maqsad – har bir asarning badiiy timsolini, kompozitorning fikrini ochib berish bo'lib, dirijor uni har bir hatti-harakatida ifodalashi lozim. Ustozim bizga ko'proq mustaqil ish bilan shug'ullanish, maxsus dirijorlik san'atiga bag'ishlangan adabiyotlarni o'zlashtirish, har doim musiqa tinglashni tavsiya etaedilar. O'z ustida ishlash asosiy omil bo'ldi va men bunga hozirgacha rioya qilib kelaman".

1970 yildan F.Abdurahimova o'z mehnat faoliyatini Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika institutida orkestr va dirijorlik sinfida dars berish bilan boshladi. Institutning kechki bo'limi talabalari rus xalq cholg'ulari orkestriga rahbarlik qildi.

1974 yili F.Abdurahimova o'qishni imtiyozli diplom bilan tugatib, kafedraga tavsiya asosida xalq cholg'ulari orkestri dirijorligi kafedrasida o'qituvchi-professor A.I.Petrosyans sinfiga assistentura-stajirovka bo'limiga o'qishga qabul qilinib, "xalq cholg'ulari orkestri dirijorligi" mutaxassisligi bo'yicha o'qiy boshladi. O'sha yillari unga talabalar xalq cholg'ulari orkestri bilan ishlash topshirildi. Bu yerda F.Abdurahimova faqatgina o'zining professional ijrochilik mahoratini oshiribgina qolmay, rahbar bo'lib, talabalar orasida tarbiyaviy ishlarni olib borishda xizmat qildi.

1976-1986 yillari konservatoriya bilan bir vaqtda O'zbek Davlat filarmoniyasi qoshida T.Jalilov nomidagi xalq cholg'ulari orkestrida dirijor sifatida ishlab, o'zining ijrochilik mahoratini oshirib bordi. Orkestrda amaliy ishlash unga professional mahorat maktabi vazifasini o'tadi. Abonement konsertlarida qatnashish unga katta saboq bo'ldi. Chunki ushbu dargohda konsert ijrochiligi bo'yicha o'sdi; konsert dasturlarini tanlash va ular ustida ishlash, orkestrga rahbarlik qilish, sahnada o'zini tutish, tomoshabinga hatti-harakatlar orqali asar mazmunini yetkazish kabi xususiyatlarga e'tibor berib keldi.

1985-1988 yillarda konservatoriyaning xalq cholg'ulari fakulteti dekani, 1992 yildan tanlov asosida xalq cholg'ulari orkestri dirijorligi kafedrasining mudiri bo'lib ishladi. F.Abdurahimova 1987 yildan 1997 yilgacha dotsent, 1997 yildan boshlab esa professor lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda. U dirijorlik, orkestr sinflarida, dirijorlik uslubiyoti fanlaridan dars berib kelmoqda. F.Abdurahimova dirijorlik faoliyati, ko'p yillik konservatoriya talabalari xalq cholg'ulari orkestri rahbari bo'lish bilan birga mehribon ustoz va yoshlarning talabchan va sevimli murabbiysi hamdir. U talabalarga xalq cholg'ulari orkestri dirijorligi uslublarini o'rgatmoqda. Uning rahbarligida konservatoriyaning tugatgan talabalar respublikamizning turli viloyatlaridagi san'at va musiqa bilim yurtlarida, teatr va

konsert tashkilotlarida dirijor sifatida samarali mehnat qilmoqdalar. Bular orasida M.Akmaljonova, A.Saxiyev, G'.Abrarov, U.Isayev (O'zbekiston davlat konservatoriyasining o'qituvchilari), S.Kalilayeva, B.Saparboyev (Nukus san'at kolleji o'qituvchilari), M.Vahobjonova (Andijon san'at kolleji o'qituvchisi), A.Yo'ldoshev (Andijon san'at kolleji o'qituvchisi) va boshqalar bor.

F.Abdurahimovaning asosiy faoliyati dirijorlik ijrochiligi bo'lib qoldi. Hamma vaqt pultga chiqqan paytida u dirijorlik apparatiga katta ahamiyat berib kelgan. Dirijorning orkestr va tomoshabin oldida turishi hamisha to'g'ri va chiroyli bo'lishi, hatti-harakatlari ifodaviy bo'lishiga intiladi. Dirijorning holati musiqa bo'ysunishi lozim; harakatlari aniq, tushunarli, o'lchovli, ta'sirchan bo'lmog'I joiz. F.Abdurahimova imo-ishoralari va dirijorlik harakatlari orqali har bir musiqa asarining badiiy obrazini yaratishga intiladi. Shu tufayli orkestrning umumiy ruhi, tembri, sur'ati, uning badiiy darajasi, ijrochilik mahoratiga e'tiborini qaratadi. Ishlash jarayonida F.Abdurahimova orkestr ijrochilik an'alarini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor berib, xalq cholg'ulari orkestri va cholg'ular guruhlari bilan katta ijodiy ish olib bormoqda. Bu amaliy ijrochilik va ilmiy izlanishlardan asosiy maqsad – orkestr ijrosidagi imkoniyatlarni mimkin qadar kengaytirish va yorqin milliy koloriti bilan ta'minlashdir. Tinimsiz ijodiy izlanishlar natijasida F.Abdurahimova yangi tartibdagi va yangi uslubdagi orkestr yaratishga bel bog'ladi.

1991 yili F.Abdurahimova O'zbekistonda yagona o'zbek xalq cholg'ularidan tashkil topgan kamer orkestri tashkil etildi. Mustaqillik bilan tengdosh ushbu orkestr tarkibiga iste'dodli sozandalar – konservatoriyaning yosh o'qituvchilari, bitiruvchilari, ijrochilari Respublika va Xalqaro tanlovlar sovrindorlari jalb etildi. Xalq cholg'ulari laboratoriyasida orkestr uchun yangi, takomillashtirilgan musiqa cholg'ulari tayyorlab berildi. Musiqa madaniyatimizda o'zbek xalq cholg'ularining uzoq rivojlanish tarixini nazarda tutgan holda orkestrga **“So'g'diyona”** nomi berildi. Uning repertuari, konsert dasturlari va ijrochilik uslublari ustida katta izlanish ishlari olib borildi. “Ushbu tarkibda orkestrni yaratish g'oyasi birinchi marta konservatoriyada o'qigan yillarim, Samarqandga ikki oylik ta'til chog'ida

shahar o'quvchilar saroyida amalga oshdi, – deb yozadi F.Abdurahimova. – Bolalarni to'plash, ularga cholg'ularda (rubob va dutorlarda) ijro uslublarini o'rgatish, musiqa savodini o'rgatish kabi masalalarni yechish asosiy maqsad edi. Birinchi yilning o'zida, ikki oylik mashaqqatli mehnat natijasida bolalar xalq cholg'ulari jamoasi “Oq terakmi, ko'k terak?” va rus xalq qo'shig'i “Вополеберезастояла” asarlarini tinglovchilarga taqdim etdik. Keyinchalik bir necha yillar davomida ushbu jamoa bilan Samarqand bilim yurti o'qituvchisi Sh.Gavrilov shug'ullanib keldi. Men esa ta'tillarim vaqtida ushbu orkestr bilan ishladim.menimcha bu tajriba “So'g'diyona” orkestrini tashkil etishda debocha bo'ldi.

1991 yilning bir necha oylari davomida orkestr yangi yaratilgan cholg'ular bilan boyib deyarli to'la shakllangan edi. Orkestrimizda iste'dodli yosh sozandalardan yig'ilgan – G'.Norboyev, O.Nazarov, O.Samadov, Z.Turovov, D.Mutalov, K.Shermatov, S.Qosimov, F.Turexanova, A.Toshpo'latov va boshqalar. Orkestr bilan hamisha xonandalar – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Mehrixon Bekjonova, Abduhalil Abduqodirov va boshqalar konsert dasturlarimizda qatnashib turishadi. Huddi shu tartibda orkestr turli mamlakatlarga borib konsertlar ham berib turadi. Professional ijro etish imkoniyatlari va yorqin milliy koloritga ega bo'lgan kamer xalq cholg'ulari orkestrini yaratish juda murakkab va yechimi qiyin bo'lgan muammolardandir. “So'g'diyona” esa ushbu muammoni yechish uchun o'zining ijrochilik mahoratini oshirib kelmoqda”.

“So'g'diyona” kamer orkestri F.Abdurahimova rahbarligida musiqa muxlislari orasida o'tgan vaqt ichida shuxrat tojini kiydi. Orkestr repertuarida o'zbek va turli jahon xalqlari qo'shiq va kuylari, O'zbekiston bastakorlari va kompozitorlari asarlari o'rin olgan.

F.Abdurahimovaning ko'p yillik ijrochilik, konsert va pedagogik faoliyati samarasi o'laroq, uning turli ilmiy-amaliy anjumanlarda orkestr ijrochiligi muammolari to'g'risidagi chiqishi, S.Sobirova bilan birgalikda chop etilgan “A.I.Petrosyans” nomli monografiyasi, shuningdek, to'plam va jurnallardagi

maqolalari va o'quv uslubiy ishlari hamda dasturlari F.Abdurahimovaning serqirra ijodining samarasi bo'ldi.

1997 yili Firuza Abdurahimova 1987 yili dotsent, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoniga sazovor bo'ldi. 1997 yildan boshlab esa professor, 2009 yilda "O'zbekistonda Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" unvoniga sazovor bo'ldi.

SO'G'DIYONA O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI KAMER ORKESTRINING TASHKIL QILINISHI VA FAOLIYATI

1991 yili "So'g'diyona" o'zbek xalq cholg'ulari kamer orkestri tashkil etilganidan keyin qisqa vaqt ichida o'zining dastlabki yutuqlarida erishib, tez orada mutaxassislar, tinglovchilar e'tiboriga tushdi. Asta-sekin o'sha Toshkent davlat konservatoriyasining zallarida, hamda Toshkent shahrida o'tkaziladigan ko'plab tadbirlarda o'zining konsertlarini bera boshladi. Xo'sh, o'shanda Toshkent shahrida o'zining qariyb yarim asrga va undan ko'proq tarixga ega bo'lgan O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi To'xtasin Jalilov nomidagi o'zbek xalq cholg'ulari Akademik orkestri va O'zteleradio qoshidagi Doni Zokirov nomli o'zbek xalq cholg'ulari orkestri faoliyat olib borayotgan bir davrda va ta'bir joiz bo'lsa, bu jamoalar ijodida nisbatan, qandaydir turg'unlik kayfiyati hukmron bir paytda, yana bir orkestrning tuzilishi va uning bunchalik tez nazarga tushishi, muvaffaqiyatlarga erishishining sababi nima edi? Unda ijod qilayotgan sozandalar kimlar edi? Jamoaning ijro dasturi qanday asarlardan tuzilgan edi?

Biz jamoaning tarixiga nazar tashlab, uning ijodiy yo'lini baholi qudrat tahlil qilib, yuqoridagi savollarga javob topishga, uning ijodiy sirlarini aniqlashga harakat qilib ko'ramiz.

Ushbu orkestr o'sha paytdagi Toshkent davlat konservatoriyasining dotsenti F.Abdurahimova tomonidan tuzilgan bo'lib, asosan dutorlar oilasiga mansub

cholg'ular – dutor prima, dutor alt, dutor sekunda, dutor bas, dutor kontrabas hamda rubob prima, qashqar rubobi, afg'on rubobi va doira cholg'ularidan, jami 13-14 kishidan iborat tarkibga ega edi. Qisqa vaqtdan keyin chang, nay va qo'shnay cholg'ulari qo'shilgan. Sozandalar asosan Toshkent davlat konservatoriyasi talabalari va bitiruvchilardan taklif etilgan. Ular Odiljon Nazarov, Rustam Karimov (qashqar rubobi), Ilhom Dehqonov (afg'on rubobi), Nazira Tursunova, Muhiddin Otaxo'jayev (prima rubobi), Farxod Rasulov, Madina Qurbonova, Sulton Qosimov (dutor), Rustam Jabborov (dutor kontrabas), Sa'dulla Muqimov (dutor bas), Alisher Ziyayev (doira).

Jamoa dastlabki repetitsiya mashg'ulotlarini Toshkent davlat konservatoriyasi qoshidagi cholg'ular eksperimental laboratoriyasi binosida, sovuq xonada boshlangan. Sozandalar hech qanday maoshsiz, biron-bir to'lovlarsiz o'z hohishlari bilan haftada ikki marta yig'ilib, mashg'ulot o'tkazishgan.

Bunday iqtisodiy nochor ahvoldagi "ishxona" ayrim sozandalarni qoniqtirmasligi tabiiy edi albatta, bu esa o'z navbatida sozandalar tarkibining tez o'zgarishiga, shu bilan birga tom ma'noda "saralanishi"ga olib keldi. Ya'ni jamoada faqat asl fidoiy sozandalarning jamlanishiga sabab bo'ldi. Aynan mana shu "saralangan" tarkib orkestrning kelajakda yutuqlariga zamin bo'lgan bo'lsa ajabmas. O'shanda orkestr, hatto hali o'zining mashg'ultolari uchun biron-bir doimiy manzilga ega bo'lmaganligi bois, dastlabki 5-6 yil davomida turli tashkilotlarning ko'magida har-xil joylarda repetitsiya qilishga majbur edi. Bunday sharoitda faqat fidoiy insonlarga o'z kasbiga, hunariga, ijodiga sodiq qolib ishlashi mumkin edi. Nihoyat, jamoa haqiqiy insonlardan, fidoiy sozandalardan iborat tarkibda shakllandi.

Albatta ijro dasturi hali unchalik boy bo'lmasada, uning rang-barangligi, qiziqarliligi, ommabopligi bilan e'tiborni tortardi. Dasturlarning muhim jihatlaridan biri, unda ham ko'p ovozli orkestr, ham unison ansambl ijrosida turfa asarlar mavjudligi bo'lsa kerak o'shanda. Konsertlarga tayyorlanayotganda albatta tinglovchilar auditoriyasi, ularning o'ziga xos tomonlari va cholg'u musiqasini qay darajada, yoki qanday musiqalarni qabul qila olishi kabi omillarni nazarda tutgan

holda dasturlar tuzilardi. Jamoa uchun asosiy mezon ijro darajasining yuqoriligi edi, bu esa albatta, konsertlar muvaffaqiyatini ta'minlab berardi. Har bir konsertdan keyin muntazam ravishda dirijor boshchiligida jamoa bilan ijodiy muhokama tashkil qilinishi, o'zaro ijodiy tandiq, fikrlar almashinishi, kamchiliklarini ochiq oydin e'tirof etilishi oxir-oqibat ularning bartaraf qilinishiga, qayta takrorlanmasligiga va yangi yutuqlarga erishishiga olib keladigan omillardan biri bo'lib xizmat qilardi.

Asta-sekin "So'g'diyona" o'zining konsertlarini nafaqat O'zbekistonda, balki chet ellarda ham namoyish eta boshladi. Ijodiy safarlarning dastlabkilarini Turkmanistonning Chorjou va O'zbekistonning Buxoro shahriga (1992 y.) borishdan boshladi.

Undan so'ng birin-ketin Qozog'iston (1995, 2008, 2010 y), Rossiya, (1993, 2008 y), Fransiya (1997 y), Misr Arab Respublikasi (1997, 1998 y), Janubiy Koreya (1996, 1997, 2008 y), AQSH (2002), Hindiston (2006) kabi mamlakatlarda turli xalqaro festivallar, tanlovlar, konsert dasturlarida muvaffaqiyat bilan qatnashib kelmoqda. Bulardan ayniqsa 1996 yilda Ispaniyaning Logrono shahrida bo'lib o'tgan XXX plektr musiqasi xalqaro festivalida "Gran-pri" sohibi, 2009 yilda AQShning Nyu-York shahrida o'tkazilgan "Golden-Trophy" xalqaro musiqiy yozuvlar tanlovida 1-o'rin va Oltin diplom, 2010 yilda Qozog'istonning Oqtyube shahrida o'tkazilgan "Jubanov ko'klami" xalqaro orkestrlar va ansambllar tanlovida I-o'rinni egallaganliklarini alohida ta'kidlash mumkin.

Orkestr ijodining o'tgan 26 yillik faoliyatida o'nlab yirik loyihalar, konsertlar katta muvaffaqiyatlar bilan amalga oshirib kelinmoqda. O'tgan vaqt ichida albatta jamoa tarkibi o'zgarib, yangilanib-yosharib kelmoqda. Quyidagi jadvalda jamoada shu davr mobaynida ijod qilgan sozandalar ro'yxati keltirilgan.

Cholg'u nomi	Sozandaning ismi, familiyasi	Ishlagan vaqti
Nay	Norboyev G'ofir	1992-2003 y.
	Do'simbetov Botir	2004-2011 y.

	To'rayev Bekzod	2011-shu kungacha
Qo'shnay	Mirbaratov Mirodil Toshpo'latov Abduxomid Risqimammedov Shuxrat Ro'ziyev Nasriddin	1992-1997 y. 1997-2005 y. 2005-2006 y. 2006-shu kungacha
Chang	Mutalov Dilshod Mahmudova Nodira	1992-2010 y. 2010-shu kungacha
Qonun	Shermatov Komil Tolipov Izzat	1999-2005 y. 2005-shu kungacha
Rubob Prima	Tursunova Nazira Azimxo'jayev Husan Otaxo'jayev Muxiddin Samadov Oybek Ibragimov Nodir Miskinov Otabek	1991-2005 y. 1991-1995 y. 1991-1997 y. 1998-2000 y. 2001-2011 y. 2011-shu kungacha
Qashqar Rubob	Nazarov Odil Karimov Rustam Yuldashev Ibrohim Hamroyev Shokir Nazarov Qosim	1991-shu kungacha 1991-1992 y. 1992-1994 y. 1994-1997 y. 1997-shu kungacha
Afg'on Rubob	Dehqonov Ilhom Shomurodov Oqil Jamoliddinov Alisher Hojinazarov Anvar Meliboyev Dilshod	1991-1997 y. 1993-1994 y. 1994-2012 y. 1998-2006 y. 2006-shu kungacha
Dutor	Rasulov Farhod Qurbonova Madina Qosimov Sulton Jabborova Gulnoza Karimjonova Durdona	1991-1992 y. 1991-1992 y. 1991-1998 y. 1994-2013 y. 1994-1999 y.

	Saparbayev Baxtibay Yunusov Ulug'bek	1991-1995 y. 1998-shu kungacha
Dutor bas	Muqimov Sa'dulla Turopov Zulxorbek Umarov Sherzod Jumayev Eldor	1991-1993 y. 1992-2005 y. 1993-2013 y. 2013-shu kungacha
Dutor Kontrabas – G'ijjak kontrabas	Jabborov Rustam Quvvatov Ilyos [Yaxshiboyev Vohid] Kubayev Dilshod	1991-1993 y. 1993-2000 y. 2000-2016 2016-shu kungacha
G'ijjaklar	O'rinboyev Kamoliddin Gapporov Farhod Tursunov Akmal Qoraboyev Abdumajid Qodirov Sanjar	2008-2009 y. 2009-2015 y. 2009-2015 y. 2013-shu kungacha 2014-shu kungacha
G'ijjak bas	Safarov Orzu	2009-shu kungacha
Zarbli Cholg'ular	Ziyayev Alisher Turaxanov Farhod Mansurov Abror Ubaydullayev Abdulla	1991-1993 y. 1993-2004 y. 2004-2012 y. 2012-shu kungacha

Shu davr mobaynida orkestr sozandalari hukumat unvonlariga sazovor bo'ldilar. Ulardan “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist” unvoniga F.R.Abdurahimova (1997), G'.Norboyev (2001), K.Shermatov (2004), O.Nazarov (2007), “Nihol” – davlat mukofotiga U.Yunusov (2004), “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi” – F.R.Abdurahimova (2009).

Yuqorida jamoaning qo'lga kiritgan yutuqlari qisqa satrlarda takrorlashimiz, sozandalar ro'yxatini keltirib o'tishimizdan maqsad maqolamizning boshida

o'rtaga tashlagan savollarga javob topish, ularni tahlil qilishdan oldin orkestr faoliyati haqida muxtasar tasavvur hosil qilish edi.

Shunday qilib "So'g'diyona" xalq cholg'ulari kamer orkestrining yutuqlari garovi bo'lgan omillarga to'xtalib o'tsak. Ulardan dastlabkisi va asosiysi bu – rahbar, dirijor, uning ijodiy salohiyati, ishga munosabati, yondashuvi, ishni tashkil qilishi va konsert faoliyatini to'g'ri olib borish va dasturlarni to'g'ri tuza bilish kabi qobiliyatlardir. Aytib o'tilgan sifatlarning barchasi "So'g'diyona" xalq cholg'ulari kamer orkestri dirijori F. Abdurahimovada mujassam desa mubolag'a bo'lmaydi.

Chunki F. Abdurahimova avvalambor inson sifatida, mutaxassis sifatida ishga munosabatida halolligi, qat'iyligi, fidoiyligi kabi ko'plab sifatlari bilan jamoaga shaxsiy namuna ko'rsatadi. Shu bilan birga sozandalarga qo'yiladigan talablarning to'g'riligi va haqqoniyligi jamoaning ishga bo'lgan munosabatini to'g'ri shakllanishiga olib keladi. Ishdagi aniqlik, ishni rejalar asosida tashkil qilinishi, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarilishini talab qilinishi orkestr ijodiy samaradorligini va professional darajasini ta'minlab beradi. Sozandalarning ijro texnikasi va ijro mahoratini doimiy nazorat qilib bo'rish dirijorning – F. Abdurahimovaning asosiy talablaridan biridir.

To'g'ri tanlangan dastur konsert muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan biri ekanligi ma'lum. "So'g'diyona" kamer orkestri dirijorini bugungi kunda eng yaxshi konsert dasturlarini tuza oladigan eng yaxshi dirijorlardan biri deb hisoblash mumkin. Chunki ijodiy jamoalar bilan muntazam faol konsert ijrochilik faoliyati olib borganligi natijasida yetarli tajriba to'plangan. Har bir konsert dasturi puxta o'ylangan holda – har tomonlama ko'rib, jamoa bilan muhokama qilingach, tasdiqlanadi va keying ishlar davom ettiriladi.

Bulardan tashqari F. Abdurahimova har bir sozandaga induvidal yondashish, uni muntazam nazorat qilish, ayniqsa jamoa tarkibi o'zgarib, "yosharib" borayotgan paytda, sozandalar, xususan, yoshlar bilan ishlash, ularning o'sishiga, jamoa ijrosiga ko'nikishida, pirovardida yuqori darajadagi jamoaviy ijroning shakllanishiga alohida e'tibor bilan qaraydi.

Asosiy omillarning navbatdagisi – orkestrdagi sog'lom ijodiy muhit. Bu eng asosiy omillardan bo'lib, orkestrda ijod uchun, shug'ullanish - o'z ustida ishlash uchun barcha sharoitlar yetarli. Ushbu jamoada dirijor va sozanda, shuningdek, cholg'uchilarning o'zaro bir-birini to'g'ri tushunishi, ijodiy jarayonda bo'ladigan o'zaro fikr-mulohazalar va takliflarning to'g'ri qabul qilinishini kuzatish mumkin. Ayniqsa, rahbarning sozandalar shaxsiy hayotlari bilan yaqindan tanishligi, ulardan hech bir yordamini ayamasliklari, repetitsiya jarayonlari esa ijodiy izlanuvchanlik ruhida o'tkazilishi tahsinga sazovordir. Bundan tashqari, orkestr repetitsiyasida dirijor sozandalarga o'z fikr, mulohazalarini va takliflarini bimalol bildirishlariga izn berishi va ularni inobatga olishi ko'p orkestr jamoalarida kuzatilmaydigan holatlardan biridir. Bir so'z bilan aytganda, jamoa a'zolari orkestr repetitsiyasiga shunchaki ishga boorish uchun, yoki maosh olayotganligi uchun majburan emas, balki aynan ijod qilish uchun, o'z hohishi bilan asarlar ustida ishlash uchun keladi. Aynan mana shu narsa repetitsiya jarayonlarining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ijodiy muhit sabab sozandalar o'z ustida muntazam ishlab boradilar. Ayniqsa yangi asar ustida ishlanganda, cholg'uchilar tashabbus ko'rsatib, shu asarni to'laqonli ijrosini ta'minlaydigan ijro shtrixlari, usullari qidirib topilib, birgalikda sozandalar bir to'xtamga kelgan holda ijro etishlari muhim jihatlardandir.

Biz asosiy urg'u bermoqchi bo'lgan omillardan yana biri, bu – jamoa ijro uslubining o'ziga xosligi, sozandalarning ijrochilik mahorati va turli uslublarni uyg'unlashtirganligidir. Ma'lumki, bugun O'zbekistonda cholg'u ijrochiligida ikki yo'nalish – an'anaviy, hamda kompozitor asarlarini nota asosida ijro etadigan yo'nalish mavjud. Har ikki yo'nalish ham o'ziga xos murakkablikka, ijro uslublariga, ijrochilik maktablariga ega. Sozandalar asosan ikki yo'nalishdan biriga ixtisoslashgan bo'ladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida “an'anaviy ijrochilik”, hamda “xalq cholg'ularida ijrochilik” kafedralarida ikki yo'nalish bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. “So'g'diyona” kamer orkestri sozandalari asosan nota asosida chalish yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashgan bo'lsada, ularga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri, bu – ularning har ikki yo'nalishda birdek ijro eta olishlaridir. Ya'ni ham ko'p ovozli orkestr ijrochiligida,

ham unison ansambl ijrochiligida birdek mahorat bilan ijro etishidir. Bu xususiyat haqiqatdan ham murakkab bo'lib, buning uchun ko'p shug'ullanish, ko'p musiqa tinglash, har ikki yo'nalishga xos ijro ko'nikmalarini o'zlashtirish talab etiladi. Masalan, an'anaviy asarlar ustida ishlaganda "kashish", "molish", "sayqal", "terl" kabi asosiy musiqiy bezaklarni o'zlashtirish, ularning sadolanish davomiyligini, miqdorini va dinamikasini to'g'ri tanlay bilish, tovush kuchini boshqara olish kabiko'nikmalarini o'zlashtirish talab etiladi. Orkestr sozandalari orasida bu ko'nikmalarni mukammal egallagan tajribali cholg'uchilar mavjud bo'lib, ular yosh sozandalar bilan har bir asar ustida, har bir shtrix ustida erinmay alohida ishlaydilar. Va natijada mukammal ansambl ijrosiga erishiladi.

Endi gap ikki yo'nalishdagi asarlarni bitta konsert dasturida ketma-ket ijro etish masalasida qoladi va bunda cholg'uchi asardan asarga qayta moslashish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun avvalo muayyan asarni to'liq anglagan, idroklagan bo'lishi va ishga ma'suliyat bilan yondoshgan holda diqqatni jamlay olgan bo'lishi muhim. Aynan shu jihatlar "So'g'diyona" kamer orkestri sozandalarida yillar davomida shakllangan bo'lib, bu jihatlar konsert faoliyatida o'z samarasini bermoqda.

“SO’G’DIYONA” O’ZBEK XALQ CHOLG’ULARI KAMER ORKESTRINING SOZANDALARI HAQIDA



“So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer orkestri jamoasi

Avvalambor har bir orkestr musiqachilarsiz bo’lmaydi. Chunki, sozandalarning ijro vositasi cholg’ulari bo’lsa, dirijorning ijro vositasi bu – orkestr

musiqachilaridir. Shu nuqtai nazardan biz orkestr cholg'uchilari ya'ni, aynan, "So'g'diyona" kamer orkestrining ijrochilari haqida to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. Yuqorida qayd etganimizdek, ushbu orkestrning ulkan yutuqlarga erishishi, bugungi kundagi mavqei o'z-o'zidan bo'lib qolmagan. Orkestrning badiiy rahbari va dirijori F. Abdurahimovanning musiqiy asarlarning talqinini ochishda uning fikrlarini, ichki dunyosini his qilib, u bilan yelkama-yelka turib, fidoyilik ko'rsatgan ijrochilarning hayoti va ijodiy faoliyati haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

TO'RAYEV BEGZOD ABDURASHIDOVICH (NAY)



To'rayev Begzod Abdurashidovich 1986 yilda Surxondaryo viloyati, Uzun tumanida tug'ilgan. 1997-2002 yillarda R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktab internatida "dutor bas" cholg'usi bo'yicha o'qigan. 2002-2005 yillarda nay cholg'usi yo'nalishi bo'yicha O'zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi "Iqtidorli bolalar akademik litseyi"da ta'lim olgan. 2005-2009 yillarda esa O'zbekiston davlat konservatoriyasini bakalavriat boshqichini tamomlagan.

To'rayev Begzod Abdurashidovich xalq cholg'ulari orasida o'tkazilgan Respublika va Xalqaro tanlovlar sovrindori. Shulardan respublika miqyosida o'tkazilgan tanlovlar (Namangan-2003, Toshkent-2004, Buxoro-2005)da

g'oliblikni qo'lga kiritgan. Xalqaro miqyosdagi tanlovlardan 2006 yil Qozog'istonning Astana shahrida o'tkazilgan Qurmang'ozini nomli tanlovda g'olib bo'lgan. Rossiyada bo'lib o'tgan "Baykal kubogi" xalqaro tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritgan.

To'rayev Begzod Abdurashidovich "Yangi nomlar-2007" fondining stipendianti va sertifikati bilan taqdirlangan. 2010-yil Janubiy Koreyada o'tkazilgan "C.P.I" dasturida ishtirok etgan. 2009-yildan buyon "So'g'diyona" xalq cholg'ulari kamer orkestrida orkestr ijrochisi va solisti sifatida ishlab kelmoqda.

RO'ZIYEV NASRIDDIN SABRIYEVICH (qo'shnay, surnay)



Ro'ziyev Nasriddin Sabriyevich 1954 yilda Buxoro viloyatining Buxoro shahrida tug'ilgan. 1971-1975 yillarda Buxoro musiqa bilim yurtida o'qigan. O'qishni tamomlab, 1975-1980 yillarda Toshkent Davlat Konservatoriyasida o'qigan.

Ro'ziyev Nasriddin Sabriyevich Respublikada o'tkazilgan festival va tanlovlar sovrindori. Shu bilan birga dunyoning turli davlatlari bo'lgan gastrollarda qatnashga. Jumladan, AQSH, Turkiya, Koreya, Rossiya, Qozog'iston, Hindiston va boshqalar.

AQSHda bo'lib o'tgan gastrol safarida Mustafo Bafoyevning "Buxorocha konsert"ining birinchi ijrochisi. Uning ijrosi ostida yigirmadan ortiq asarlar O'zbektelevideniya oltin fondida saqlanadi.

2006-yildan buyon "So'g'diyona" xalq cholg'ulari kamer orkestrida orkestr ijrochisi va solisti sifatida ishlab kelmoqda. U shu bilan birga, Toshkent Madaniyat kollejida o'qituvchi vazifasida ishlamoqda.

MELIBOYEVA NODIRA QAHRAMONJONOVA (chang)



Meliboyeva Nodira Qahramonjonova 1989 yil Toshkent shahrida tug'ilgan. 2004-2007 yillarda Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi Respublika musiqa kollejida o'qigan. 2007-2011 yillarda O'zbekiston davlat konservatoriyasi "xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasida chang mutaxassisligi bilan birga kompozitorlik san'ati mutaxassisligi bo'yicha bakalavr bosqichini tamomlagan. 2013 yilda magistratura bosqichini tugatgan.

Meliboyeva Nodira Qahramonjonova Respublika va Xalqaro tanlovlar sovrindori. Respublika "Tasanno" mukofoti sohibasi. 2006, 2007, 2009 yillarda respublika tanlovlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan. Xalqaro miqyosdagi tanlovlardan 2010 yil Rossiyada bo'lib o'tgan "Baykal kubogi" xalqaro tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritgan.

2010-yildan buyon “So’g’diyona” xalq cholg’ulari kamer orkestrida orkestr ijrochisi va solisti sifatida ishlab kelmoqda. U shu bilan birga, Toshkent shahridagi 20-sonli bolalar musiqa maktabida ishlab kelmoqda.

IZZATILLA TOLIPOV HUSNIDDINOVICH (qonun)



Izzatilla Tolipov Husniddinovich 1987 yilda Toshkent viloyatida tug’ilgan. 2006 yilda Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi Respublika musiqa kollejini chang va qonun mutaxassisliklari bo’yicha tamomlagan. 2006 yilda O’zbekiston davlat konservatoriyasining bakalavr bosqichiga qabul qilingan.

Izzatilla Tolipov Husniddinovich xalq cholg’ulari orasida o’tkazilgan Respublika va Xalqaro tanlovlar sovrindori. Shulardan respublika miqyosida o’tkazilgan tanlovlar (Namangan-2003, Toshkent-2004, Buxoro-2005)da g’oliblikni qo’lga kiritgan. Xalqaro miqyosdagi tanlovlardan 2006 yil Qozog’istonning Astana shahrida o’tkazilgan Qurmang’ozi nomli tanlovda g’olib bo’lgan. 2007 yilda Rossiyada bo’lib o’tgan “Baykal kubogi” xalqaro tanlovida g’oliblikni qo’lga kiritgan.

Izzatilla Tolipov Husniddinovich “Yangi nomlar-2007” fondining stipendianti va sertifikati bilan taqdirlangan. 2010-yil Janubiy Koreyada oʻtkazilgan “C.P.I” dasturida ishtirok etgan. 2006-yildan buyon “Soʻgʻdiyona” xalq cholgʻulari kamer orkestrida ishlab kelmoqda.

ODILJON NAZAROV FOZILJONOVICH (qashqar rubobi)



Odiljon Nazarov Foziljonovich 1964 yil Fargʻona viloyatning Rishton tumanida tugʻilgan. 1984-1988 yillarda Fargʻona musiqa bilim yurtida qashqar rubobi sinfida oʻqigan. 1988-1993 yillarda Oʻzbekiston davlat konservatoriyasida tahsil olgan.

Respublika tanlovlari sovrindori (1986, 1992 y.). 2007 yilda Moskva shahrida oʻtkazilgan xalqaro “Yangi nomlar” dasturida sertifikat bilan taqdirlangan. 1991-yildan buyon “Soʻgʻdiyona” xalq cholgʻulari kamer orkestrida orkestr ijrochisi va solisti sifatida ishlab kelmoqda. Shu bilan bir qatorda hozirda Oʻzbekiston davlat konservatoriyasining professori lavozimida ishlaydi. Konservatoriyaning talabalariga qashqar rubobi sirlarini oʻrgatib kelmoqda.

Odiljon Nazarov O'zbekiston musiqasini rivojlanishida va xalqaro miqyosda tanilishida qo'shgan ulkan hissasi uchun 2007 yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoni bilan taqdirlandi.

QOSIMJON NAZAROV POZILJONOVICH (qashqar rubobi)



Qosimjon Nazarov Poziljonovich 1978 yil Farg'ona viloyati, Rishton tumanida tug'ilgan. 1996 yilda qashqar rubobi mutaxassisligi bo'yicha R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa internat maktabini tugatib, 1996-2001 yillarda O'zbekiston davlat konservatoriyasida qashqar rubobi mutaxassisligi bo'yicha o'qigan. 2003 yilda magistratura bosqichini tamomlagan.

Qosimjon Nazarov Poziljonovich 1997 yil Samarqand shahrida o'tkazilgan "Respublika yosh ijrochilar" ko'rik-tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritgan.

1997-yildan buyon "So'g'diyona" xalq cholg'ulari kamer orkestrida orkestr ijrochisi va solisti sifatida ishlab kelmoqda. U shu bilan birga, Toshkent Madaniyat kollejida o'qituvchi vazifasida ishlamoqda.

MELIBOYEV DILSHOD ALIJONOVICH (afg'on rubobi, ud)



Meliboyev Dilshod Alijonovich 1986 yilda Farg'ona viloyati Uchko'prik tumanida tug'ilgan. 1997-2005 yillarda R.Glier nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa internat maktabida afg'on rubobi mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olgan. 2005-2009 yillarda O'zbekiston davlat konservatoriyasining bakalavr bosqichini hamda 2009-2011 yillarda magistratura bosqichini tamomlagan.

2007 yilda Moskva shahrida o'tkazilgan xalqaro "Yangi nomlar" dasturida sertifikat bilan taqdirlangan. 2008 yilda respublika "Tasanno" mukofoti sohibi bo'lgan.

2006-yildan buyon "So'g'diyona" xalq cholg'ulari kamer orkestrida orkestr ijrochisi va solisti sifatida ishlab kelmoqda. U shu bilan birga, Toshkent shahridagi 20-sonli bolalar musiqa maktabida ishlab kelmoqda.

ULUG'BEK YUNUSOV ABDUHOSHIMOVICH(dutor, tanbur)



Ulug'bek Yunusov Abduhoshimovich 1994-1997 yillarda Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi Respublika musiqa kollejini dutor va tanbur mutaxassisliklari bo'yicha tamomlagan. 1999-2003 yillarda O'zbekiston davlat konservatoriyasining bakalavr bosqichini tamomlagan. 2005 yilda magistratura bosqichini tamomlagan.

Ulug'bek Yunusov Abduhoshimovich respublika tanlovlari g'olibi. U 1997 yil Namanganda, 1999 yil Qarshida, 2000 yil Toshkentda o'tkazilgan tanlovlarda golib bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tashkil qilingan "Nihol" davlat mukofoti sovrindori. 2007 yilda Moskva shahrida o'tkazilgan xalqaro "Yangi nomlar" dasturida sertifikat bilan taqdirlangan.

1998-yildan buyon "So'g'diyona" xalq cholg'ulari kamer orkestrida orkestr ijrochisi va solisti sifatida ishlab kelmoqda. U shu bilan birga, Toshkent Madaniyat kolleji hamda O'zbekiston davlat konservatoriyasida o'qituvchi vazifasida ishlamoqda.

QODIROV SANJAR ALISHER O'G'LI (g'ijjak)



Qodirov Sanjar Alisher o'g'li 1994- yil 13- oktabr kuni Toshkent shahar Bektemir tumanida tug'ilgan. Qodirov Sanjar 1993- yilda R. Glier nomli RIMALni bitirib, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasiga imtiyozli ravishda talabalikka qabul qilindi.

2013-yilda Ukrainadagi Yalta shahrida o'tkazilgan "Qirm bahori" ko'rik-tanlovida 3- o'rin sovrindori bo'lgan.

2016-yilda "So'g'diyona" o'zbek xalq cholg'ulari kamer orkestriga ijrochi sifatida taklif qilingan.

KUBAYEV DILSHOD ILYOS O'G'LI (qobuz kontrabas)



Kubayev Dilshod Ilyos o'g'li 1994- yil 1- yanvar kuni Jizzax Viloyati Zarbdor tumani, Bo'ston shaharchasida tug'ilgan. 2005- yil R. Glier nomidagi RIMALning 5- sinfiga qabul qilingan. 2013- yilda R. Glier nomidagi RIMALni bitirib, imtiyozli ravishda O'zbekiston Davlat Konservatoriyasiga o'qishga qabul qilingan.

2013-yilda Ukrainadagi Yalta shahrida o'tkazilgan "Qirm bahori" ko'rik-tanlovida 3- o'rin sovrindori va shu yilning o'zida O'zbekistonda o'tkaziladigan "Yosh ijrochilar" Respublika ko'rik-tanlovida 1-o'rin egallagan.

2016-yilda "So'g'diyona" o'zbek xalq cholg'ulari kamer orkestriga ijrochi sifatida taklif qilingan.

“SO’G’DIYONA” O’ZBEK XALQ CHOLG’ULARI KAMER ORKESTRINING FAOLIYATIDA O’ZBEK KOMPOZITORLARINING IJODIY HAMKORLIGI

DILOROM SAYDAMINOVANING “SO’G’DIYONA” ORKESTRI BILAN IJODIY HAMKORLIGI

San’atdagi yangi yo’nalish va uslublar haqiqiy ijodkorlarning g’oyalari mushtarakligida yuzaga keladi. Musiqiy tilni yangilash, zamonaviy ifoda vositalarini topish yo’lidagi tinimsiz izlanishlar ijodkorlarni o’zaro jipslashtiradi. Iste’dod egalari dunyoni teran anglashga, uning voqeliklarini san’at asarlarida yuqori badiiy darajada ifoda etishga intiladilar. Ana shunday tom ma’nodagi ijodkorlar sirasiga kompozitor Dilorom Ahmatovna Saydaminova va dirijor Firuza Ravshanovna Abdurahimova kiradi. Ularning ijodiy g’oyalari bir-biriga hamohang bo’lib, “So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer orkestri ijrochilari ularni tinglovchilarga yetkazib berishga xizmat qiladi.

D.A.SAYDAMINOVA → SO’G’DIYONA ← F.R.ABDURAHIMOVA

Zero, har bir kompozitor asarining taqdirini ma’lum darajada ijrochi belgilaydi desak, mubolag’a bo’lmaydi. Boisi, kompozitor ijodiy g’oyasini asarga ko’chiradi, ijrochi esa, kompozitor va tinglovchi o’rtasida bamisoli ko’prikdir. Ana shu shu ko’prikning qanchalik tog’ri, mustahkam qurilishi ko’p jihatdan kompozitor va ijrochining bir-birilarini tushunishlariga bog’liq.

O’zbekiston kompozitorlik ijodiyotining yorqin vakillaridan biri D.Saydaminova zamonaviy o’zbek musiqiy tilini yangilash yo’lida shaxdam qadamlar bosib, davr bilan hamnafas asarlar yaratmoqda. Eng muhimi, D.Saydaminovanning ijod mahsullari milliy an’analarga tayanadi. Uning ijodida milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining uyg’unligining yangicha talqinini kuzatish mumkin. Shu o’rinda “So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer

orkestri badiiy rahbari va bosh dirijori F.Abdurahimova jamoani tuzar ekan, eng avvalo milliy qadriyatlarni tiklashni, xalq cholg'ularida ijro etishning yangi yo'llarini izlab, uni rivojlantirishni, qolaversa, keng ma'noda milliylik va umuminsoniylikni uyg'unlashtirishni maqsad qilganini e'tirof etish joiz. D.Saydaminova va F.Abdurahimova ijodiy g'oyalarining bir-biriga yaqinligi, ularning hamkorlikdagi asarlariga yanada boqiylik bag'ishlaydi. Ular milliylikni umuminsoniylik darajasiga ko'tarish yo'lida tinimsiz izlanishdalar. Ana shu yuksak g'oyalar "Yuksak bilimli va intellectual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish, modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyada ham ko'tarilgani bejiz emas. Zero, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, "milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish zarurligini anglab yetgan, zamonaviy bilim, intellectual salohiyat va ilg'or texnologiyalarga ega odamlargina rivojlanish borasida o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlarga erisha oladi".

D.Saydaminova ijodi bilan yaqindan tanish bo'lgan F.Abdurahimova yangi uslub va yo'nalishidagi asarni ijro etishni ko'zlagan edi. D.Saydaminova uch asr – "Tush manzalari" (2004), "Sarob" (2005), va "Mag'rib va Mashriq" devoni (2008) ni "So'g'diyona" ijrochilarga taqdim etdi. Bu haqida u quyidagilarni hikoya qiladi: "Orkestr rahbari F.Abdurahimova mendan asar yozib berishimni iltimos qilganida juda uzoq o'yladim. Chunki, bu jamoa mening kompozitorlik uslubimni qay tariqa eta olarkin? Degan savol qiynardi". Avvaliga ishni qanday boshlash kerakligini uzoq o'ylagan kompozitor, o'z yo'li, o'z yozuv uslubidan voz kechmaslikka ahd qildi. D.Saydaminova "So'g'diyona" uchun mutlaqo yangicha uslubdagi asar yaratib berishni maqsad qildi. Ilk asar "Tush manzaralari" ijrochilar uchun haqiqiy yangilik bo'ldi. Garchand, ular bu yo'nalishdagi musiqa bilan tanish bo'lsalarda, o'zlari ijro etib ko'rmagan edilar. Shunga qaramay, bir necha mashg'ulotlar davomida kompozitor va yuqori professional jamoa til topishib ketishdi. Natijada, ijodkorning asosiy g'oyasini anglab, tinglovchilarga yetkazib berishga muvaffaq bo'ldilar.

